



**TURON FANLAR AKADEMIYASI FAXRIY AKADEMIGI, FALSAFA
FANLARI DOKTORI, PROFESSOR SHODIYEV RUSTAM
TOXIROVICHNING 70 YILLIK YUBILEYIGA BAG'ISHLANGAN
"SHARQ TAFAKKURI VA INSON MUAMMOSI: MA'NAVIYAT, TIL VA
TARBIYANING FALSAFIY TAMOYILLARI"**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMAN

**25-IYUN
2025-YIL**

SAMARQAND 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Shodiyev Rustam Toxirovichning 70 yillik yubileyiga bag‘ishlangan

**“SHARQ TAFAKKURI VA INSON MUAMMOSI: MA’NAVIYAT,
TIL VA TARBIYANING FALSAFIY TAMOYILLARI”**

**mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjuman**

.

2025 yil, 25-iyun

Samarqand - 2025



“Sharq tafakkuri va inson muammosi: ma’naviyat, til va tarbiyaning falsafiy tamoyillari” Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi maqolalari to’plami. (2025 yil 25-iyun). Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2025. – 406-bet.

Tahrir hay’ati a’zolari:

f.f.d., dots. (DSc), Melikova M.N.
f.f.d., dots. (DSc), Xoliqov Yu.O
f.f.b.f.d., dots. (PhD), Xandamov I.A.
f.f.b.f.d., dots. (PhD), Ashurova X.S.
t.f.b.f.d., dots. (PhD), Indiaminova Sh.A.

Ma’sul muharrirlar:

f.f.b.f.d., dots. Xolikov B.A.
f.f.d., prof. G‘aybullayev O.
f.f.b.f.d., dost. Umirzoqov U.
o‘qituvchi. Malikov R.R.

Taqrizchilar:

SamDU. f.f.d., prof. Samadov A.R
SamDU. f.f.b.f.d., dots. Abdullayev S.T
SamISI. f.f.b.f.d., dots. Ro‘zumurodov S.M.

Mazkur konferensiya maqolalar to’plami 2025-yil 25-iyunda Samarqand davlat chet tillar instituti *“Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari”* kafedrası professori Shodiyev Rustam Toxirovichning 70 yillik yubleyiga bag‘ishlab tashkil etilgan.

UDK 101.1::316

© Samarqand davlat chet tillar instituti, 2025

FALSAFA YO‘LIDA HAYOT: PROFESSOR RUSTAM SHODIYEV HAYOTI VA ILMIY MAKTABI

Yurtimiz falsafa sohasida o‘chmas iz qoldirgan, katta ilmiy maktab va ma’naviy meros asoschilari qatorida munosib o‘ringa ega bo‘lgan olim, falsafa doktori, professor Rustam Tohirovich Shodiyevning nomi mamlakatimiz falsafa, madaniyat va ma’naviyat taraqqiyoti tarixiga zarhal harflar bilan yozib qo‘yilgan.

Rustam Tohirovich Shodiyev o‘z mehnat faoliyatini 1995-2023-yillarda Samarqand davlat chet tillar institutida olib borib, shu davr mobaynida ijtimoiy fanlar kafedراسи mudiri, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimlarida samarali faoliyat yuritgan. Shu bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar olib borib, 1983-yilda nomzodlik dissertatsiyasini, 1993-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvafaqiyatli himoya qilib, 1989-yilda dotsent ilmiy unvonini, 2009-yil professor ilmiy unvonlarini olgan. 2021-yilda Turon Fanlar Akademiyasi Faxriy akademik ilmiy unvoniga sazovar bo‘lgan. Ilmiy faoliyati davomida ustoz 14 nafar fan nomzodi, 3 nafar fan doktorining ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qildi. Salmoqli mehnatlari evaziga “Mehnat faxriysi” medali, 2006-yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi”, 2011-yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi”, 2022-yilda “O‘zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi” estalik nishonlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, mahalliy hokimiyat organlari Faxriy Yorliqlari, tashakkurnomalar va boshqa mukofotlar bilan taqdirlangan.

Rustam Tohirovich Shodiyev o‘zining butun hayotini ilm, ta’lim va ma’rifat yo‘liga bag‘ishladi. Uning ilmiy qarashlari, falsafiy tahlillari va insoniy fazilatlari nafaqat shogirdlari va hamkasblari, balki butun ilm ahli uchun katta maktab bo‘lib xizmat qildi. Uning faoliyatida sharq tafakkuri, inson tabiati, ma’naviyat, tarbiya, madaniyat va til muammolari markaziy o‘rin egallardi.

Professor Rustam Shodiyevning falsafiy merosida alohida o‘rin egallaydigan mavzulardan biri - sharq falsafiy tafakkurida tasavvuf tushunchasini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Ustoz tasavvufda insonning ruhiy dunyosi, axloqiy tanlovi, hayotiy maqsadlari va ma’rifiy salohiyatini har tomonlama tahlil qilgan.

Rustam Tohirovich nafaqat olim, balki fidoyi ustoz sifatida ham tanilgan edi. U har bir shogirdiga shaxsan e’tibor berib, ularning ilmiy va insoniy rivojlanishini o‘z zimmasiga mas’uliyat deb bilardi. Uning o‘quv mashg‘ulotlari, ma’ruzalari bilim va ruhiy tarbiya uyg‘unligini ifoda etar, talabani faqat ma’lumot bilan emas, balki o‘zlikni anglash, mas’uliyatli fikrlash, ma’naviy etuklikka chorlardi.

Uning shogirdlari orasida hozirda doktorlar, professorlar, fan nomzodlari, amaliy sohalarda faoliyat yurituvchi ziyolilar bor. Ularning har biri ustozining

samarali uslubini, bilimga ishtiyoqini va insonparvarlik fazilatlarini minnatdorlik bilan eslaydi.

Professor Shodiyevning falsafiy kontseptsiyalarida yana bir muhim jihat - milliylik va umuminsoniylik uyg'unligidir. U milliy qadriyatlarni faqat an'ana deb emas, balki yangi tafakkur, global mulohazalar zamini sifatida baholardi. Uningcha, inson o'z millatining ma'naviy ko'klamidan uzilmasligi kerak, biroq bu bilan u dunyoqarash jihatdan yopiq bo'lib qolmasligi lozim.

Rustam Tohirovich Shodiyev hayotida ham, ilmiy faoliyatida ham doimo ezgulik va ma'naviyat tamoyillariga tayandi. Uning xotirasi biz uchun faxr manbai, ilhom va mas'uliyat mezonidir. U qalblarimizda doimo tirik — uning ilmiy merosi, shogirdlari, yozgan kitoblari va yoritgan fikrlari orqali yashaydi.

Biz, uning shogirdlari va zamondoshlari, bu buyuk inson xotirasini doimo e'zozlaymiz va uning ilmiy maktabini munosib davom ettiramiz.

Aziz ustozimiz Rustam Toxirovich Shodiyevni xotirasi muhtaram, ruhi shod bo'lsin!

HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ILOVALI ELEMENTLARNING LINGVOPRAHMATIK XUSUSIYATLARI

Bektemirov Zohid Nodirovich

“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon nemis tilida ilovali (parentetik) elementlarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ilovalar og‘zaki va yozma nutqda ma’lumotga baho berish, shubha bildirish, mulohaza yuritish, tinglovchi/voqea ishtirokchisiga murojaat qilish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. Maqolada ilovali birliklarning lug‘aviy-tuzilma jihatlari, ularning sintaktik mustaqilligi va kontekstual moslashuvi nemis tilidagi autentik misollar asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: nemis tili, ilovali element, lingvopragmatika, kommunikativ vazifa, sintaktik struktura, parentetik birlik

KIRISH: Til – bu insoniyat tafakkuri va ijtimoiy hayotining asosiy ifoda vositasi bo‘lib, uning har bir elementi muayyan kommunikativ yuklamaga ega. Ayniqsa, zamonaviy lingvistik tahlil doirasida turli kontekstlarda ishlatiladigan strukturalarning pragmatik jihatdan tahlil qilinishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan biri bo‘lgan **ilovali elementlar** (yoki parentetik birliklar) hozirgi zamon nemis tilida nutqning mantiqiy, emotsional va baholovchi jihatlarini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ilovali elementlar nutqda asosiy fikr ifodalanayotgan konstruktsiyaga grammatik jihatdan bo‘ysunmaydi, biroq semantik va pragmatik darajada uning mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular, odatda, og‘zaki yoki yozma matnda muallifning shaxsiy fikri, hissiy munosabati, shubha, ishonch, qo‘shimcha ma’lumot, yoki boshqa ijtimoiy-sotiativ signallarni yetkazishda qo‘llaniladi. Bu esa ularning **lingvopragmatik ahamiyatini** yanada oshiradi.

Zamonaviy nemis tilida bu kabi birliklar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, publitsistik matnlar, shuningdek, muloqotga asoslangan nutq turlarida keng qo‘llaniladi. Masalan:

Ich denke – wenn ich ehrlich bin – dass er nicht erscheinen wird.
(Menimcha – rostini aytsam – u kelmaydi.)

Yuqoridagi misolda ko‘rinib turibdiki, *wenn ich ehrlich bin* ilovasi asosiy gap tarkibiga sintaktik jihatdan qo‘shilmagan bo‘lsada, u gapiruvchining shaxsiy pozitsiyasini bildiruvchi muhim pragmatik signal rolini bajaradi. Shu boisdan ham ilovali elementlarning hozirgi zamon nemis tilidagi sintaktik, semantik va eng muhimi, **pragmatik funksiyalarini o‘rganish** lingvistik jihatdan muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – nemis tilidagi parentetik konstruktsiyalarning **lingvopragmatik xususiyatlarini** chuqur tahlil qilish, ularning qo‘llanilish doirasi, strukturaviy xususiyatlari hamda kommunikativ

yuklamasini aniqlashdan iborat. Maqolada shuningdek, ilovali elementlarning tipologiyasi, ularning turli janrdagi matnlardagi ifoda uslubi hamda nemis tiliga xos bo'lgan o'ziga xos sintaktik-strukturaviy belgilari autentik misollar asosida yoritib beriladi. Shu orqali nemis tilshunosligida parentetik birliklar masalasining dolzarbligi va o'rganishga loyiq jihatlari ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilovali elementlar (parentetik birliklar) nemis tili sintaksisi va pragmatikasi doirasida ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. Ularning lingvopragmatik jihatlari tahlil qilishda ilk bor klassik grammatik ishlanmalarda, jumladan Helbig va Buscha tomonidan yozilgan **"Deutsche Grammatik"** qo'llanmasida ushbu birliklar gap tarkibidagi qo'shimcha komponentlar sifatida izohlangan bo'lib, ular asosan emotsional yoki shaxsiy baholashni bildiruvchi iboralar orqali aniqlanadi [1]. Brinker o'zining **"Linguistische Textanalyse"** asarida ilovali elementlarning matndagi funksional roli haqida so'z yuritadi. Uning ta'kidlashicha, bu birliklar muallifning o'z fikriga yoki tinglovchiga nisbatan pozitsiyasini ochiq ifodalashiga xizmat qiladi. Brinker ushbu birliklarni **kommunikativ niyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan konstruktsiyalar** sifatida baholaydi [2]. D. Hentschel va H. Weydt esa **"Deutsche Grammatik – Ein Handbuch für den Ausländerunterricht"** nomli qo'llanmada ilovali birliklarning grammatik mustaqilligi haqida so'z yuritadi. Ular ilovali elementlarni asosiy gap strukturasi bilan bevosita sintaktik bog'liq bo'lmagan, lekin semantik kontekstda mustahkam aloqada bo'ladigan birliklar deb tavsiflaydi. Ularning fikricha, bu birliklar tilning **konversations darajadagi soddalashtiruvchi** elementi sifatida ham ko'riladi [3].

Shuningdek, tilshunos olimi Eva Gülich o'zining kommunikativ pragmatika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida (ayniqsa, **"Alltagssprache und Fachsprache"** asarida) parentetik birliklarning funksional ko'rinishlarini keng tahlil qiladi. U bu elementlarning og'zaki va yozma nutqda fikrga nuanslar kiritish, nozik baholashlarni ifodalash, shubhalanish yoki o'z fikrini yumshatish kabi rollarini ko'rsatadi [4]. Stilistik nuqtayi nazardan esa M. Thurmairning **"Stilistik der deutschen Sprache"** asari muhim manba hisoblanadi. U ilovali iboralarni muallifning nutqiga xos bo'lgan stilistik vosita sifatida baholab, ularning nutq ritmiga, semantik yuklamaga va auditoriyaga ta'sirini tahlil qiladi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi zamon nemis tilida ilovali (parentetik) elementlar tilning pragmatik resurslari sifatida muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat sintaktik jihatdan mustaqil bo'lib, asosiy gap tarkibiga qo'shilmasdan, balki semantik va pragmatik darajada ham mustahkam aloqada bo'ladi. Ilovalar kommunikativ vazifalarni bajarishda, gapiruvchining shaxsiy munosabatini, bahosini, shubhasini yoki qo'shimcha ma'lumotni ifodalashda keng qo'llaniladi. Ilovali birliklar kommunikativ

vazifalarni bajarishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali gapiruvchi o'z fikrini yanada aniqroq, ta'sirchanroq va nozikroq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol uchun:

„Er ist – ehrlich gesagt – nicht besonders zuverlässig.“

Bu jumlada *„ehrlich gesagt“* ilovasi gapiruvchining shaxsiy fikrini bildiruvchi va baholovchi element sifatida ishlatilgan. Ilovalar yordamida gapiruvchi o'z fikrini yumshatishi, kuchaytirishi yoki aniqlik kiritishi mumkin. Ilovalar shuningdek, tinglovchiga murojaat qilish, diqqatini jalb qilish yoki muloqotda ishtirok etishini ta'minlashda ham qo'llaniladi. Masalan:

„Du weißt ja – wenn ich ehrlich bin – dass ich das nicht mag.“

Bu misolda *„wenn ich ehrlich bin“* ilovasi tinglovchiga murojaat qilish va gapiruvchining shaxsiy fikrini ifodalashda ishlatilgan.

Ilovali birliklar sintaktik jihatdan mustaqil bo'lib, asosiy gap tarkibiga qo'shilmasdan, vergul, tire yoki qavs yordamida ajratiladi. Ular gap tarkibida qo'shimcha ma'lumot, baho yoki izoh kiritishda ishlatiladi. Misol uchun:

„Der Präsident – laut offizieller Mitteilung – wird die Reise verschieben.“

Bu jumlada *„laut offizieller Mitteilung“* ilovasi asosiy gap tarkibiga qo'shilmasdan, vergul yordamida ajratilgan va qo'shimcha ma'lumot kiritishda ishlatilgan.

Ilovalar ko'pincha predloglar yordamida shakllanadi. Masalan, *„durch“*, *„gegen“*, *„für“* kabi predloglar ilova aloqalarini ifodalashda qo'llaniladi. Bunday konstruktsiyalar semantik jihatdan qo'shimcha ma'lumot yoki baho kiritishda ishlatiladi. Ilovali birliklar semantik jihatdan qo'shimcha ma'lumot, baho, shubha yoki aniqlik kiritishda ishlatiladi. Ular gapning ma'nosini boyitadi va tinglovchiga qo'shimcha kontekst taqdim etadi. Misol uchun:

„Sie hat – wie ich finde – sehr überzeugend argumentiert.“

Bu jumlada *„wie ich finde“* ilovasi gapiruvchining shaxsiy fikrini bildiruvchi va baholovchi element sifatida ishlatilgan. Ilovalar shuningdek, gapning umumiy ma'nosini kuchaytirish yoki yumshatishda ham qo'llaniladi. Masalan:

„Das war – meiner Meinung nach – eine sehr gute Entscheidung.“

Bu misolda *„meiner Meinung nach“* ilovasi gapiruvchining shaxsiy fikrini bildiruvchi va baholovchi element sifatida ishlatilgan. Ilovali birliklar pragmatik jihatdan gapiruvchining niyati, munosabati yoki fikrini ifodalashda ishlatiladi. Ular muloqotda nozik munosabatlarni, shubhalarni yoki ehtiyotkorlikni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Misol uchun:

„Ich würde – wenn ich ehrlich bin – lieber zu Hause bleiben.“

Bu jumlada *„wenn ich ehrlich bin“* ilovasi gapiruvchining ehtiyotkorligini va shaxsiy fikrini bildiruvchi element sifatida ishlatilgan. Ilovalar shuningdek,

gapiruvchining diqqatini jalb qilish, tinglovchiga murojaat qilish yoki muloqotda ishtirok etishini ta'minlashda ham qo'llaniladi. Masalan:

„Du weißt ja – wenn ich ehrlich bin – dass ich das nicht mag.“

Bu misolda *„wenn ich ehrlich bin“* ilovasi tinglovchiga murojaat qilish va gapiruvchining shaxsiy fikrini ifodalashda ishlatilgan. Ilovali birliklar tilshunoslikda tilning pragmatik resurslari sifatida o'rganiladi. Ular tilning semantik va sintaktik strukturasidan tashqari, muloqotda gapiruvchining niyati, munosabati yoki fikrini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ilovalar yordamida gapiruvchi o'z fikrini yanada aniqroq, ta'sirchanroq va nozikroq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ilovalar tilshunoslikda kommunikativ funktsiyalarni o'rganishda, tilning pragmatik jihatlarini tahlil qilishda, shuningdek, tilni o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida til o'rganuvchilarga tilning nozik pragmatik jihatlarini tushunish va to'g'ri qo'llay olish imkoniyatini yaratish mumkin.

XULOSA

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamon nemis tilida ilovali elementlar (parentetik birliklar) nutq va matnning lingvopragmatik qatlamini boyituvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ular gapiruvchining shaxsiy munosabati, fikri, bahosi yoki qo'shimcha axborotini ifodalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa ijtimoiy va emotsional kommunikatsiyada muhim rol o'ynaydi. Ilovali birliklar sintaktik jihatdan mustaqil bo'lsa-da, ular semantik va pragmatik nuqtayi nazardan asosiy gap bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa ularni nutq strukturasida ajralmas komponentga aylantiradi. Tahlillardan ko'rinadiki, nemis tilida ilovalar yordamida fikrga aniqlik kiritish, baholash, shubha bildirish, tinglovchiga murojaat qilish yoki o'z pozitsiyasini yumshatish kabi kommunikativ vazifalar bajariladi. Ularning strukturalari xilma-xil bo'lib, predlogli iboralar, qo'shma gaplar yoki modal ifodalar orqali yuzaga chiqadi. Ayniqsa, og'zaki nutqda ilovali birliklar nafaqat grammatik, balki stilistik va diskursiv vosita sifatida ham faol qo'llaniladi. Xulosa qilib aytganda, ilovali elementlarning nemis tilidagi qo'llanilishi ularning lingvistik ko'lamini kengaytiradi va bu sohadagi izlanishlar nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy til o'rgatish jarayoni uchun ham muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularni o'rganish va o'qitishda e'tiborni ularning funksional-yuklamasiga, kontekstga bog'liqligiga hamda gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy-muloqotiy munosabatlar kontekstida tahlil qilish zarur. Shu bilan birga, bu birliklarning real nutqdagi ishlatilish holatlarini aniqlash orqali lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOILAR RO'YXATI:

1. Helbig, G. & Buscha, J. (2001). *Deutsche Grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht*. Berlin: Langenscheidt.
2. Brinker, K. (2005). *Linguistische Textanalyse. Eine Einführung in Grundbegriffe und Methoden*. Berlin: Erich Schmidt Verlag.
3. Hentschel, E. & Weydt, H. (2003). *Deutsche Grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht*. Berlin: De Gruyter.
4. Gulich, E. (1970). *Alltagssprache und Fachsprache*. Frankfurt a.M.: Athenäum Verlag.
5. Thurnann, M. (1991). *Stilistik der deutschen Sprache*. München: Hueber Verlag.

ISSUES IN SYNTACTOSEM ANALYSIS IN LINGUISTICS: THE PARADIGMATICS OF THE OBJECT SYNTACTEME

D.R.Jo'rayeva

SamDCHTI tadqiqotchisi

ANNOTATION

In this article, the theoretical foundations of syntactosem analysis in contemporary linguistics are examined, with particular emphasis on the paradigmatic characteristics of the object syntacteme. The necessity of employing an approach to the analysis of syntactic units based on a system of categorial and non-categorial features is substantiated. The article considers the morphological, syntactic, and semantic aspects of the object syntacteme and determines its functional role within the sentence. Specifically, it analyzes the distributional possibilities of the object syntacteme, its paradigmatic connections with other syntactic components, and its manifestation through various grammatical expression means. Furthermore, the categorial and non-categorial statuses of the units that express objecthood are subjected to comparative analysis. Based on the research findings, it is concluded that the object syntacteme occupies a central position within the paradigmatic system of syntactic structures.

KEYWORDS: syntacteme, objecthood, paradigmatic system, categorial features, non-categorial units, syntactic relations, distribution, syntactic analysis.

INTRODUCTION

In contemporary linguistics, alongside traditional grammatical approaches, methods based on functional-semantic criteria are also widely employed in the process of analyzing syntactic units. In particular, syntactosem analysis has in recent years been developing into a distinct scientific direction within linguistics.

MUNDARIJA

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
1-SHO‘BA. HOZIRGI DAVR FANINING DOLZARB MUAMMOLARI		
<i>Komil HAYDAROV</i>	PEDAGOGIK MAHORAT – O‘QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHIDA MUHIM OMIL	6
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINING MOHIYATI	9
<i>Murtazayeva Umida Isakulovna, Kamalova Nilufar, Abdixoirova Shahlo</i>	MOBIL ILOVA YORDAMIDA DAVRIY NASHRLARGA ONLAYN OBUNA TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISH	14
<i>Toshboyev Jahongir Saydazim o‘g‘li, Shermatov Elyor</i>	YONG‘INGA SEZGIR USKUNALARNI LOYIHALASH VA AVTOMATIK SIGNALIZATSIYASI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	17
<i>Abdusalimova Shaxnoza</i>	HOZIRGI DAVR ILM- FANINING DOLZARB MUAMMOLARI	20
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i>	TA‘LIM MADANIYATI: AN‘ANA VA ZAMONAVIYLIK O‘RTASIDAGI DIALEKTIKA	23
<i>Elmuratova Umida Mamadiyarovna, Abdumannonova Hamida G‘ayrat qizi</i>	HOZIRGI DAVR FANINING DOLZARB MUAMMOLARI	26
<i>Мамаджонова Шахло Шукуржоновна</i>	ТЕМА: КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ — ПУТЬ К ПРОЦВЕТАНИЮ	32
<i>Xolmirzaeva Jumagul Xamdamovna, Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i>	MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLAR TARIXI	36
<i>M.Misrbekova</i>	ZAMONAVIY TARIX TA‘LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING	38

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
	DOLZARBLIGI	
<i>Umurzakova Kommuna Xursanovna</i>	ОНТОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ЗНАНИЙ В СИСТЕМАХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	41
<i>Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna</i>	YOSHLAR MUOMALA MADANIYATINI SHALKANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	46
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i>	TA'LIM MADANIYATIDA TARIXIY AN'ANALAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARNING UYG'UNLIGI	49
<i>Malikov Ruslan Raufovich</i>	ZAMONAVIY SHAROITDA NIQOBLANGAN YUZNI TANIB OLISH MUAMMOLARI VA ULARNING TEKNOLOGIK YECHIMLARI	52
<i>Boliqulova Muxlisa Nomoz qizi</i>	TASK-BASED LEARNING IN ENGLISH CLASSROOMS	57
<i>Alimova Shaxrizoda G'olib qizi</i>	YAPONIYA MILLIY LIBOSLARI. KIMONO	62
<i>Безбудиева П.И</i>	ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ: ОТ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ К НАЦИОНАЛЬНОМУ ПРОБУЖДЕНИЮ	67
<i>Soliyeva Zarina Botirovna</i>	MARTIN XAYDEGGERNING "BORLIQ VA VAQT" ASARIDA DASEIN: MAVJUDLIK, AUTENTIKLIK VA BORLIQ BILAN MUNOSABAT	70
<i>Улжаев Умарали Қурбонович</i>	ТЕРМИЗДА ЕТИШГАН МУҲАДДИС – АБУ ЖАЪФАР ТЕРМИЗИЙНИНГ ИЛМИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОСИ	74
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i>	INSON QADRI TUSHUNCHASINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI	79
<i>Ziyatova Iroda Suyunovna</i>	OMMAVIY ONG FENOMENING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	84

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
2-SHO‘BA. ILMIY TADQIQOTLAR RIVOJLANISHINING METODOLOGIK ASOSLARI		
<i>Меликова Мартаба Нумоновна</i>	РОЛЬ МЕТОДОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ДИСЦИПЛИН	88
<i>Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich</i>	MIRZO ULUG‘BEK - BUYUK MA‘RIFATPARVAR, ILM-FAN VA MADANIYATNING YETUK HOMIYSI	90
<i>Indiaminova Shoira Amriddinovna</i>	SUG‘D SAVDOGARLARI VA ULARNING XALQARO SAVDODAGI O‘RNI	94
<i>Меликова Мартаба Нумоновна</i>	МЕТОДОЛОГИЯ НАУКИ: СУЩНОСТЬ, СТРУКТУРА И РОЛЬ В ПОЗНАНИИ	98
<i>Yo‘ldoshev Sherzod Ravshan o‘g‘li</i>	MA‘NAVIYATSHUNOSLIK FANINING RAQAMLI TA‘LIMDAGI TADQIQOT METODOLOGIYASI	101
<i>Akramjonova Dilnavoz Davronbek qizi, Adhamxo‘ja Isaxo‘ja o‘g‘li</i>	CHO‘LPON: JADIDCHILIK G‘OYALARI VA ADABIY MEROSINING UYG‘UNLIGI	103
<i>Abdullayeva Dilbarhon Usmonkhoja qizi,</i>	DEVELOPING LOGICAL THINKING IN YOUTH: A CORNERSTONE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT	108
<i>Hakimova Muyassar Rashidovna, Choriyeva Laylo Abduhakim qizi</i>	TA‘LIM SIFATINI BAHOLASHNING XALQARO TIZIMI, MOHIYATI VA AHAMIYATI	119
<i>Jangirova Husniya Ilhom qizi</i>	INGLIZ ADABIYOTIDA BOBUR MIRZO SHAXSI	125
<i>Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna</i>	ABU NASR FOROBIYNING ASARLARIDA TA‘LIM-TARBIYA MASALALARI	128
<i>Kambarov Maribjon</i>	ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUVAQQAT ARXAIZMLAR	132

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>Abduhakimovich</i>		
<i>Mardonov Ravshan Rabbano o'g'li</i>	BEHBUDIY MEROSIDA AN'ANAVIY VA INNOVATSION YONDASHUVLARNING SINTEZI HAMDA UNING AHAMIYATI	136
<i>Mohigul Nasrullayeva</i>	TRANSGUMANIZM FALSAFIY ATAMA SIFATIDA: KELIB CHIQISHIDAN ZAMONAVIY MA'NOSIGACHA	140
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamadamovna</i>	TARIXIY MANBALARDA MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI SUB'EKTIV TO'SIQLAR HAQIDA	143
<i>Xudoyarov Jasur Saparovich</i>	TURON SIVILIZATSIYASINING IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI	145
<i>Misrbekova Mahliyo, Bauyrjan Sayfunov</i>	TURKIY XALQLARDA TUG' RAMZINING SHAKLLANISHI	149
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullayevna, Akramova Shaxribonu Ixtiyor qizi</i>	IMMANUEL KANTNING AXLOQIY QARASHLARI	152
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullayevna</i>	INSONIY DUNYOQARASHNING SUBYEKTIV VA OBYEKTIV QATLAMLARI: METODOLOGIK YONDASHUVLAR	155
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullayevna</i>	ZAMONAVIY SHAXS DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI	157
<i>Xasanov Hayotbek</i>	OILAVIY TARBIYADA TA'LIM GUMANIZATSIYASINING O'RNI: FALSAFIY TAHLIL	161
<i>Xasanov Hayotbek</i>	TA'LIMDA QADRIYATLAR TIZIMI: ILMIY-FALSAFIY YONDASHUV	165
<i>Kubaeva Shoiratoshmurodovna,</i>	TALABALARDA ILMIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLARNING KOGNITIV-METODOLOGIK TA'SIRI	168

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>B.T.Aliqulov</i>	BUYUK IPAK YO'LI XALQLARINING XALQ OG'ZAKI IJODI VA AFSONALARINING O'ZARO ALOQADORLIGI	170
3-SHO'BA. ZAMONAVIY LINGVOFALSAFANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
<i>Irgashova Sevara Baxodir qizi</i>	LINGVISTIK NISBIYLIK: BUGUNGI KUN TALQINI	174
<i>Bektemirov Zohid Nodirovich</i>	HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ILOVALI ELEMENTLARNING LINGVOPRAHMATIK XUSUSIYATLARI	178
<i>D.R.Jo'rayeva</i>	ISSUES IN SYNTACTOSEM ANALYSIS IN LINGUISTICS: THE PARADIGMATICS OF THE OBJECT SYNTACTEME	182
<i>Bektemirov Zohid Nodirovich</i>	HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA ILOVALI ELEMENTLAR MUAMMOSI	187
<i>Elmuratova Umida Mamadiyorovna</i>	KOREYS BADIY NASRI "KIMGANSAN KIYOKI" ASARIDA SHAXS TASVIRINING LINGVOPOETIK TAHLILI	192
<i>Abdullakhojaev Adkhamkhoja Isakhoja ogli</i>	THE SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF IBRAT'S VIEWS ON FOREIGN LANGUAGES IN "JOME UL- XUTUT"	196
<i>Orzukulov Amirjon Olimjonovich</i>	YUSUF XOS HOJIB MA'NAVIY MEROSI VA XALQ OG'ZAKI IJODI O'RTASIDAGI DIDAKTIK UYG'UNLIK	203
<i>Bektemirov Shokir Xidirboyevich</i>	YUSUF XOS HOJIB MA'NAVIY MEROSI VA XALQ OG'ZAKI IJODI	207
<i>Norchaev Davron Ochilovich</i>	MINGRANTLARNING JAMIYATGA TRANSFORMATSIYALASHUVI	211
<i>Abdullayeva Zilola Narzulla qizi</i>	IJTIMOIIY-FALSAFIY NUQTAI NAZARDAN O'ZBEK RIVOYAT VA AFSONALARINING TAHLILI	214
<i>Nuriddinova Gulshoda O'lmasqulovna</i>	HOZIRGI DAVRDA QADRIYATLARNI GNOSEOLOGIK ANGLASHNING FALSAFIY ASOSLARI	216
<i>Ибадова Нафиса</i>	ОСОБЕННОСТИ ИЗОБРАЖЕНИЯ	219

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>Ахматиллоевна</i>	НАЦИОНАЛЬНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В РОМАНЕ ХАЛЕДА ХОССЕЙНИ «ТЫСЯЧА СИЯЮЩИХ СОЛНЦ»	
<i>Тагаева Тамара Баходировна</i>	ОСОБЕННОСТИ МЕТАФОРИЧЕСКОГО СОЗДАНИЯ ПРИ УСИЛЕНИИ В ПОРТРЕТНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ГЕРОЕВ В РОМАНЕ С.МОЭМА «ЛУНА И ГРОШ»	221
<i>Ziroat Saliyeva Zokirovna</i>	ENHANCING WRITTEN COMMUNICATION PROFICIENCY VIA INTEGRATIVE PEDAGOGICAL FRAMEWORKS	225
<i>Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li</i>	HINDISTON ADABIY MUHITIDA IJOD FAOLIYAT OLIB BORGAN TERMIZIY NAMOYANDALAR (SAYYID NIZOMIDDIN MUHAMMAD MA'SUM NOMIY TERMIZIY HAYOTI VA FAOLIYATI MISOLIDA)	230
4-SHO'BA. HOZIRGI ZAMON AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING FALSAFIY MASALALARI		
<i>Бозоров Мустафо Жабборович</i>	МИГРАЦИЯ СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАРИ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	236
<i>Djurakulov Xusan Anvarovich</i>	AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOSHLAR TARBIYASI MASALASINING USTUVORLASHUVI	240
<i>Almamatova Movluda Rustam qizi</i>	HOZIRGI ZAMON AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING FALSAFIY MUAMMOLARI	243
<i>Hamiyev A.T., Xoliyorov X.A</i>	AXBOROT JAMIYATIDA INSON O'ZLIGINI YO'QOTISH XAVFI: RAQAMLI DUNYODA SHAXSIYAT VA IDENTIFIKATSIYA MUAMMOLARI	248
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	EKOESTETIK IDEALNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	252
<i>Xolmamatova</i>	ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA	256

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>Jasmina, Sa'dullayeva Shahnoza Bahodirovna</i>	ULARNING HAYOTIMIZGA TA'SIRI	
<i>Jabbarova X.K.</i>	HOZIRGI ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING FALSAFIY MUAMMOLARI	260
<i>Солиева Зарина Ботировна</i>	МАРТИН ХАЙДЕГГЕРНИНГ ФАЛСАФИЙ ИЖОДИДА ТЕХНИКАНИНГ ҲУҚМРОНЛИГИ	263
<i>Буранова Мадина Уктамовна</i>	ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И ИНКЛЮЗИВНАЯ ПЕДАГОГИКА: КАК СДЕЛАТЬ ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКАМ ДОСТУПНЫМ ДЛЯ ВСЕХ	266
<i>Ziyatova Iroda Suyunovna</i>	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ZAMONAVIY YOSHLARNING OMMAVIY ONGIGA TA'SIRINING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI	269
<i>Амридинова Дилрабо Турсуновна</i>	ИНФОРМАЦИЯ И ЛИЧНОСТЬ: ЭТИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ УГРОЗЫ ЦИФРОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ИДЕНТИЧНОСТИ	273
5-SHO'BA. IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI		
<i>Xandamova Ma'rifat Akramovna., Begaliyev Jo'rabek Toshbekovich</i>	ABU RAYHON BERUNIY TAFAKKURIDA INSON VA JAMIYAT QARASHLARINI MOHIYATI	278
<i>Бозоров Шухрат Салайдинович</i>	АҲМАД ДОНИШНИНГ ИЖОДИДА МАЪРИФАТПАРВАРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИЛИШИ.	283
<i>Boboqulova Xurshida Erkinovna., Turgautova</i>	FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA DAVLAT VA IJTIMOIY INSTITUTLAR HAMKORLIGINING TARIXIY ASOSLARI	288

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>Sholpan Ashiraliyeva</i>		
<i>Xoliqov Toxir Ortiqovich</i>	MILLATLARARO BAG'RIKENGLIK MADANIYATINING AXLOQ BILAN UYG'UNLIGI.	291
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i>	ZAMONAVIY OAV VOSITALARI ORQALI TA'LIM MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	294
<i>Boboqulova Xurshida Erkinovna, Bauyrjan Saifunov</i>	FUQAROLIK JAMIYATINING TARIXIY ASOSLARI VA UNDAGI DEMOKRATIK INSTITUTLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	297
<i>Yo'ldoshev Sherzod Ravshan o'g'li</i>	AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MA'NAVIYATSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI: TAHLIL VA YONDASHUVLAR	302
<i>Yo'ldoshev Javlonbek Omon o'g'li, Dustmuxammedova Munira Farxodovna</i>	TAQILADIGAN SENSORLAR VA IJTIMOY XULQ-ATVOR: INTELLEKTUAL TAHLILNING JAMIYATDAGI O'ZGARISHLARGA TA'SIRI	308
<i>Yo'ldoshev Javlonbek Omon o'g'li</i>	TAQILADIGAN QURILMALAR VA FOYDALANUVCHI XULQ-ATVORI: PSIXOLOGIK MONITORINGNING IJTIMOY OQIBATLARI	312
<i>Murtazayeva Umida Isakulovna, Dustmuxammedova Munira Farxodovna</i>	MASOFAVIY TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	316
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	FOSTERING LOGICAL REASONING IN YOUTH: A FOUNDATION FOR INNOVATIVE GROWTH	319
<i>Эгамбердиева Зарина Уктамовна,</i>	ТОЛЕРАНТНОСТЬ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ	330

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>Бауыржан Сайфунов</i>		
<i>Aidarbekov Zeynabil Smailxanovich., Hamdamov Islom Akramovich</i>	TURKISTON FALSAFIY TAFAKKURI RIVOJIDA ABU NASR FOROBIYNING O‘RNI	332
<i>Adkhamkhoja Abdullakhojaev Isakhoja ogli</i>	IBRAT'S JUDICIAL ACTIVITY IN TURKESTAN: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS	341
<i>Эгамбердиева Зарина Уктамовна., Торгаутова Шолпан Аширалиевна</i>	УЧЕНИЕ АХМЕДА ЯСАВИ-ОСНОВНЫЕ ИДЕИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ	346
<i>Xamzayev Shavkat Abdirasulovich</i>	YASSAVIYLIKDA INSONNI TARBIYALASH: RUHIYAT VA AXLOQ UYG‘UNLIGI	350
<i>Abdullakhojaev Adkhamkhoja Isakhoja ogli</i>	THE IMPORTANCE OF IS‘HOQXON TO‘RA IBRAT’S VIEWS IN ELEVATING NATIONAL CONSCIOUSNESS: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS	355
<i>Karimova Amira., Sa’dullayeva Shahnoza Bahodirovna</i>	YOSHLARNING FUQAROLIK JAMIYATIDA ISHTIROKI VA ADOLAT TAMOIYILLARIGA TA’SIRI	360
<i>Sh.Suyunov</i>	GLOBALLASHUV SHAROITIDA TARIXIY TAFAKKUR VA MILLIY O‘ZLIKNING ANGLASH MUAMMOLARI	363
<i>Abdullaxo‘jayev Adhamxo‘ja Isaxo‘ja o‘g‘li., Akramjonova Dilnavoz Davronbek qizi</i>	NAMANGAN JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI	367
<i>Odinayev Mahmud</i>	SHAMSIDDIN TABRIZIYNING	372

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>Ahmadovich</i>	TASAVVUFIY-FALSAFIY QARASHLARI	
<i>Indiaminova Shoira Amriddinovna</i>	SUG'D YOZMA MANBALARI VA ARXEOLOGIK TOPILMALAR ASOSIDA IPAK YO'LI TARIXINI O'RGANISH	376
<i>M Misrbekova</i>	TARIX TA'LIMI ORQALI MILLIY ONG VA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH	380
<i>Abdullakhodjaev Adkhomkhodja Isakhodjaevich</i>	THE IMPORTANCE OF IBRAT'S VIEWS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL EDUCATION FOR YOUTH: A SOCIO- PHILOSOPHICAL ANALYSIS	382
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i>	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING AKSIOLOGIK QARASHLARI	386
<i>Umurzakova Komuna Xursanovna</i>	ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ	389
<i>Эгамбердиева Зарина Уктамовна</i>	АЛИШЕР НАВОИ И АБДУРАХМАН ДЖАМИ: ФИЛОСОФСКО- ГУМАНИСТИЧЕСКОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ, В КОНТЕКСТЕ СУФИЗМА И КУЛЬТУРНОЙ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ВОСТОКА	393
<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i>	BIOETIKANING IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI	397
<i>Egamberdiyeva Aziza Mustafayevna</i>	ALTRUIZM JAMIYATDA YOSHLARNI FALSAFIY TARBIYALASH OMILI SIFATIDA	400
<i>U. Yu. Nazarov</i>	SAIDRIZO ALIZODA MA'RIFATPARVAR OLIM SIFATIDA	404
<i>Муминов Нозим Наимович</i>	АСПЕКТЫ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА ПО ИЗУЧЕНИЮ ЗАПАДНОГО СУФИЗМА	409
<i>Ravshanov Akmal Maxmudovich</i>	YA'QUB CHARXIY ILMIY MEROSI VA UNING TASAVVUFIY G'OYA TARAQQIYOTIDAGI O'RNI	412
<i>Mahliyo</i>	YOSHLAR ONGIDA DINIY	416

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
<i>Misrbekova., Torgautova Sholpan Ashiraliyevna</i>	BAG‘RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	
<i>Ashurova Xurshida Sag‘dullayevna., Usmonova Charos</i>	INSON ONGI SIRLARINING FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TAHLILI	419
<i>Abdunabiyev Sunnat Ne‘mat o‘g‘li</i>	SAYYID BURHONIDDIN TERMIZIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYA TAMOYILLARI	422
<i>Kushatova Nargiza Rustamovna</i>	“AMERIKA FOJIASI” ASARIDA IJTIMOIY VA DINIY ZIDDIYATLAR ZAMIRIDAGI XRONOTOPIK STRUKTURA.	427
<i>Qarayev Abduvaf Fazliddinovich</i>	REFLEKSIV VIDEOTRENINGLAR ASOSIDA TALABALARNING KASBIY O‘SISHINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASINING ORNI	433
<i>Fayziyev Nozim Asfandiyorovich</i>	O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY SOHADA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING MEYORIY HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI	437
<i>Yallayev Baxtiyor Salimovich</i>	OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI DIFFERINSIYAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH	442
<i>Fayziyev Nozim Asfandiyorovich., Toxirqulov Zufar Jurabek o‘g‘li</i>	IJTIMOIY-IQTISODIY SOHADA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBALAR	446
	MUNDARIJA	451

**Maqolalarda keltirilgan ixtiboslar (sitatalar) va maqolalar mazmuni
uchun javobgarlik mualliflar zimmasida.**

Kompyuterda sahifalovchi: Malikov Ruslan Raufovich